

## MEHNAT MIGRATSIYASINING IJTIMOIIY-IQTISODIY TA'SIRI VA UNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

**Boltayev Ismat Istamovich**

**O'zbekiston Respublikasi**

**Bank-moliya akademiyasi magistranti**

**[navoiyvilomigratsiya@gmail.com](mailto:navoiyvilomigratsiya@gmail.com)**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20829146>**

Bugungi globallashuv jarayonlari sharoitida mehnat migratsiyasi dunyo iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Xalqaro mehnat bozorlari integratsiyasining kuchayishi natijasida aholi yuqori daromad va qulay mehnat sharoitlarini izlab bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tmoqda. Mehnat migratsiyasi rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, aholi daromadlarini oshirish, ishsizlik darajasini kamaytirish hamda valyuta tushumlarini ko'paytirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston ham tashqi mehnat migratsiyasi keng tarqalgan davlatlardan biri hisoblanadi. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi ma'lumotlariga ko'ra, xorijiy mamlakatlarda vaqtinchalik mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan O'zbekiston fuqarolari soni 1,8 million nafardan ortiqni tashkil etadi. Asosiy migratsiya yo'nalishlari sifatida Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Janubiy Koreya davlatlari uzoq yillar davomida yetakchilik qilib kelgan bo'lsa, so'nggi yillarda Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha, Vengriya, Yaponiya, BAA va Saudiya Arabistoni kabi yangi mehnat bozorlari ham shakllanmoqda.

Mehnati migratsiyasining iqtisodiy ahamiyati, avvalo, migrantlar tomonidan yuborilayotgan pul o'tkazmalarida namoyon bo'ladi. Ushbu mablag'lar aholi farovonligini oshirish, ichki iste'molni rag'batlantirish, ta'lim va sog'liqni saqlash xarajatlarini moliyalashtirishda muhim manba hisoblanadi. Shu bilan birga, pul o'tkazmalari mamlakatning valyuta tushumlari hajmini oshirib, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

1-jadval

O'zbekistonga yuborilgan pul o'tkazmalari hajmi

| <b>Yil</b> | <b>Pul o'tkazmalari hajmi</b> | <b>YaIMdagi ulushi (%)</b> |
|------------|-------------------------------|----------------------------|
| 2021       | 8,1 mlrd AQSH dollari         | 9,9                        |
| 2022       | 16,9 mlrd AQSH dollari        | 17,9                       |
| 2023       | 11,4 mlrd AQSH dollari        | 10,6                       |
| 2024       | 14,8 mlrd AQSH dollari        | 12,2                       |
| 2025*      | 18,8 mlrd AQSH dollari        | 13,4                       |

2025-yil ma'lumotlari prognoz hisoblanadi.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, migrantlar tomonidan yuborilgan pul o'tkazmalari hajmi so'nggi yillarda sezilarli darajada ortib bormoqda. Xususan, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 14,8 milliard AQSH dollarini tashkil etib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 12,2 foiziga teng bo'lgan. Bu esa mehnat migratsiyasining O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishidagi muhim o'rnini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, mehnat migratsiyasi ayrim salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Jumladan, malakali kadrlarning mamlakatdan chiqib ketishi, ayrim hududlarda

mehnat resurslari taqchilligi hamda oilaviy va ijtimoiy muammolarning yuzaga kelishi kuzatiladi. Shu sababli migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish, migrantlar huquqlarini himoya qilish va migratsiya xizmatlarini raqamlashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat migratsiyasi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, aholi daromadlarini oshirish, kambag'allikni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida migratsiya siyosatini takomillashtirish, yangi mehnat bozorlarini o'zlashtirish hamda migrantlarning moliyaviy resurslarini iqtisodiyotning samarali tarmoqlariga yo'naltirish ushbu sohaning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Castles S., Miller M. The Age of Migration. New York, 2009.
2. Todaro M. Economic Development. Pearson, 2012.
3. Stark O. The Migration of Labor. Cambridge University Press, 1991.
4. Massey D. Worlds in Motion. Oxford University Press, 2014.
5. International Labour Organization. Labour Migration Report. Geneva, 2022.
6. World Bank. Migration and Development Report. Washington, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining migratsiya siyosatiga oid qarorlari.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma'lumotlari.